



OILA-TURMUSH MUNOSABATLARI DOIRASIDAGI JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI VA OLDINI OLISH

Yuldashev Kudrat Abduvaxatovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasida dotsenti, siyosiy
fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD) podpolkovnik

Ubaydullaev Sherzod Muzaffarovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish
instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasida katta
o'qituvchisi, mayor

+99890 956-95-93

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19706320>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 19-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 21-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 23-aprel 2026 yil

KEY WORDS

*Tazyiq, zo'ravonlik, oila, xotin
qizlar, ayollar, qonunchilik,
psixologik, jaybirlanuvchi,
jinoiyatchi, kriminologik,
profilaktika, yordam.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada oilada xotin qizlarga nisbatan oila-
turmush munosabatlari haqidagi qarashlar va Oila-
turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlarning
tushunchasi va kriminologik tavsifi berilgan.*

Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan va hech kim tasavvur qila olmagan o'zgarishlar, davlatlar o'rtasida iqtisodiy qarama-qarshilik, xavfsizlikka tahdidlar ortib borayotgan tahlikali bir vaziyatda yangi Yangi O'zbekistonda tinchlik va havfsizlikni ta'minlashga doir bir qator chora tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bugungi kunda qanchalik og'ir bo'lmasin, boshlagan demokratik islohotlarimizni qat'iy davom ettirganimiz, xalqimizning qo'llab-quvvatlashi va yoshlarimizning g'ayrat-shijoati, hamjihatlik asosi bo'lgan mahallaning hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirganimiz, odamlarimizning ongi va dunyoqarashini o'zgartirib, el-yurtimizni yanada jipslashtirganimiz, tadbirkor, dehqon va fermerlarimizning tashabbuskorligi va mardona mehnati, o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan do'stona tashqi siyosatimiz hisobiga

2025 yilda barcha sohalarda ulkan yutuqlarga erishilganligini aytib o'tdi¹.

Oila – hayot abadiyligi va avlodlar davomiyligini ta'minlovchi qadriyatlar beshigi, kelajak nasllar uchun betakror tarbiya qo'rg'onidir. Shu bois, oila xalqimizda qadim zamonlardan muqaddas sanalib kelingan va shunday bo'lib qoladi. Zero xalqning, millatning kelajagi aynan oila bilan chambarchas bog'liq. Chunki har bir inson oilada tug'iladi va voyaga yetadi. Demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik

¹ <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

jamiyatida oila o'ziga xos ijtimoiy birlashmani tashkil etadi. Oilaning bu xususiyati uning jamiyat manfaatlari bilan bog'liqligi hamda ijtimoiy vazifalarida ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir"².

Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.

Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan, mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda³. Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlarning holati xotin qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog'lomlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi. Jumladan: yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni manzilli qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud emas, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan xotin-qizlar bilan yakka tartibda ish olib borish amaliyoti yo'lga qo'yilmagan, xotin-qizlar o'rtasida bandlikka ko'maklashish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha faoliyat samarasiz tashkil etilgan; yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy negizlari va an'anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha maqsadli ishlar olib borilmayapti, erta nikohlarning, oilalardagi nizoli holatlar va ajrashishlarning oldini olish bo'yicha choralarning samaradorligi past darajada qolmogda; xotin-qizlarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish borasidagi faoliyat yetarli darajada tashkil etilmagan, onalar kasalligi va perinatal kasalliklar profilaktikasi va ularning oldini olish bo'yicha samarali tizim, ayniqsa, chekka qishloq hududlarida mavjud emas; xotin-qizlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha samarali choralari ko'rilmayapti, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularga yuridik maslahatlar berish mexanizmi zamon talablariga javob bermaydi; yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilani mustahkamlash, nizoli holatlar va ajrashishlarning oldini olish sohasida kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha ishlar tashkil etilmagan deb ta'kidlandi. Insoniyat tarixi shuni ko'rsatadiki, qaysi jamiyatda, millatda, oilada ota-onaga, bolalarga bo'lgan hurmat ko'rsatuvchi urf-odatlar mavjud bo'lsa, shu yerda jinoyatchilik darajasi pastdir. Jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va unga olib kelgan shart-sharoitlar o'rganish qonunga yoki qonun ijrosiga putur yetkazadigan, unga rioya qilishga to'sqinlik qiladigan omillarni oilalardan izlash lozimligini ko'rsatdi. Zotan, har qanday huquqbuzarlikning

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi// URL:<http://www.lex.uz>.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni// URL:<http://www.lex.uz>.

kelib chiqishida oiladagi nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit muhim rol o'ynaydi. Oila-turmush munosabatlari – er va xotin, ota-ona va farzand, kelin-kuyov va qaynota-qaynona, qaynog'a-qaynuka va qaynopa qaynisingil, bobo-buvi va nabira, aka-uka va opa-singil, farzandlikka olgan va farzandlikka olingan, qo'ni-qo'shni va shunga o'xshash qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlar – avvalo nikoh, qon qarindoshlik yoki oilaviy va boshqa rishtalar bilan bog'liq bo'lgan shaxslar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlar. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, oila-turmush munosabatlari o'zining ma'lum bir doirasiga ega, bu doira avvalo nikoh, qon-qarindoshlik yoki oilaviy rishtalar yoki ma'lum bir sabablarga ko'ra bir-birlari bilan bog'langan bir guruh shaxslarning shaxsiy munosabatlarga kirishishi bilan tavsiflanadi. Oila-turmush munosabatlari doirasidagi shaxslar tomonidan bir-biriga nisbatan huquqbuzarlikning sodir etilishi oila turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarliklar hisoblanadi. Oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarliklar deganda, oilada oila a'zolari o'rtasida sodir etiladigan nizo, kelishmovchilik va janjallar oqibatida (er-xotin, qaynona-kelin, aka-uka, opa-singil va boshqalar o'rtasida) yuzaga keladigan huquqbuzarliklar tushuniladi. Bu toifadagi oilalarni amaldagi qonun hujjatlarida ijtimoiy jihatdan xavfli bo'lgan oilalar deb e'tirof etiladi. Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila – bu ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan oiladir. Oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarliklarni o'rganilishi jarayonida asosan er-xotin, qaynona-kelin, aka-uka, opa singil va boshqa yaqin qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarni nazarda tutish maqsadga muvofiqdir. Chunki, oila muhiti muvozanatini er-xotin saqlab turadi. Mazkur sohada sodir etilgan jinoyatlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, oilaviy nizolarning asosiy qismi er-xotin o'rtasidagi nizolarni tashkil etadi. Bugungi kunda oila-turmush munosabatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining quyidagi moddalarida ko'rsatilgan huquqbuzarliklar sodir etilmoqda: – bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik (MJtK 47-m.); – yengil tan jarohati yetkazish (MJtK 52-m.); – mayda bezorilik (MJtK 183-m.); – voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish (MJtK 188-m.); – voyaga yetmagan shaxsni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishga jalb qilish (MJtK 1881-m.). Shuningdek, oila-turmush munosabatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining quyidagi moddalarida ko'rsatilgan jinoyatlar sodir etilmoqda: – qasddan odam o'ldirish (JK 97-m.); – kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida qasddan odam o'ldirish 205 (JK 98-m.); – onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (JK 99-m.); – zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (JK 100-m.); – o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish (JK 103-m.); – qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-m.); – qasddan badanga o'rtacha shikast yetkazish (JK 105-m.); – qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK 109-m.); – qiynash (JK 110-m.); – o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish (JK 112-m.); – jinoiy ravishda homila tushirish, abort (JK 114-m.); – ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash (JK 115-m.); – nomusga tegish (JK 118-m.); – ayolni jinsiy aloqa qilishga majburlash (JK 121-m.); – ko'p xotinli bo'lish (JK 126-m.); – voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yoki jinoyatga jalb qilish (JK 127-m.); – ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish (JK 136-m.); – zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy ravishda ozodlikdan mahrum qilish (JK 138-m.); – tuhmat (JK 139-m.); – haqorat qilish (JK 140-m.)

jinoyatlarini sodir etgan shaxs larga qat'iy jazo chorasi belgilab qo'yilgan⁴. Shuni alohida qayd etish joizki, bugungi kunda amaliyotda oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar haqida alohida statistik hisobotlar yuritilmoqda. Lekin, ushbu statistik hisobotlar qasddan odam o'ldirish, qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilish, qasddan badanga turli darajada shikast yetkazish, bezorilikni o'z ichiga qamrab olgan. Bunday holat oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklar, uni sodir etayotgan shaxslar, ularning sabablari va imkon bergan shart sharoitlar haqida to'liq axborotni bermaydi.

Xulosa qilib aytganda, oiladagi nizolarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib bu borada quydagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, ma'muriy hududlarda oila-turmush sohasidagi jinoyatlarning sodir etilgan joyi, (uy, kvartira, dacha, kirish joyi, uy hududi va boshq.) vaqti, sodir etish usul va shakllarini tahlil qilish asosida samarali profilaktika choralari ishlab chiqish;

ikkinchidan, jinoyatchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni o'rganish orqali oiladagi nizoli vaziyatlarni kamaytirish;

uchinchidan, oilada shaxsning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish oqibatida og'ir turdagi jinoyatlarning kelib chiqayotganligi;

to'rtinchidan, oilaviy-maishiy nizolarni keltirib chiqaruvchi asosiy omilardan biri shaxsning spirtli ichimlikka ruju quyishining oqibati ekanligini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // URL:<http://www.lex.uz>.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // URL:<http://www.lex.uz>.
3. <http://www.lex.uz>.<https://senat.uz/oz/articles/post-946>
4. <https://senat.uz/oz/articles/post-946>
- 5..<https://ombudsman.uz/uz/docs/xotin-qizlar-huquqlarini-taminlash-davlat-siyosatining-ustuvor-yonalishidir>
- 6.<https://qalampir.uz/news/eng-ogir-murakkab-masalalarimiz-ayellar-buyicha-prezident-khotin-k-izlar-masalasida-yigilish-utkazdi-34035>.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // URL:<http://www.lex.uz>.